

**KOLLEKTOR-ZOVUR SUVLARIDAN QISHLOQ XO‘JALIGI  
EKINLARINI SUG‘ORISHDA FOYDALANISH  
(BUXORO VILOYATI MUSOLIDA)**

**Toshbekov Nurbek Ahadovich  
Negmurodova Dilobar Davlat Qizi  
Ozodova Anorgul Saidbek Qizi**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

*Annotatsiya: Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orishda kollektor-zovur suvlaridan foydalanishda suvning kimyoviy tarkibini aniqlash zarur. Viloyatda sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanish darajasi 1-jadvalda berilgan ma‘lumotlarga asosan aniqlanadi.*

*Kalit so‘zlar: Suv havzasi, suv resursi, tashlama ko‘l, kollektor-zovur, buloq, qishloq xo‘jaligi.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОЛЛЕКТОРНЫХ ВОД ПРИ ОРОШЕНИИ  
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР.  
(НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)**

*Аннотация: Необходимо определить химический состав воды при использовании коллекторной воды для орошения сельскохозяйственных культур. Уровень засоления орошаемых площадей региона определяется на основании информации, приведенной в таблице 1.*

*Ключевые слова: Водоем, водный ресурс, сточное озеро, водохранилище, родник, сельское хозяйство.*

**USE OF COLLECTOR WATER IN IRRIGATION OF AGRICULTURAL  
CROPS.  
(BY THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION)**

*Abstract: It is necessary to determine the chemical composition of water when using collector water for irrigation of agricultural crops. The level of salinity in the irrigated areas of the region is determined based on the information given in Table 1.*

*Key words: Reservoir, water resource, waste lake, reservoir, spring, agriculture.*

Hozirgi kunda jahonda suv resurslarining chegaralanganligi sababli, sug‘oriladigan maydonlarning kengayishi va boshqa bir qator omillari ta‘sirida suv taqchilligi yildan-yilga keskinlashib global muammolardan biriga aylanib bormoqda.

Suv resurslari kamchil boʻlgan yillarda sugʻorish uchun shoʻrlanish darajasi yuqori boʻlgan kollektor-zovur suvlarini ishlatish hisobiga suv tanqisligini birmuncha bartaraf etish mumkin. Bu suvlarning sifatini hisobga olmay, undan foydalanish qishloq xoʻjaligi ekinlar hosildorligini pasaytiradi yoki hosilni butunlay yoʻqotishga va qayta shoʻrlanishga sabab boʻladi. Ushbu salbiy oqibatlarining oldini olish uchun kollektor-zovur suvlaridan foydalanishdan oldin ularning sugʻorishga yaroqligini aniqlash zarur. Qishloq xoʻjalik ekinlarini sugʻorish suvning yaroqliligi, dastavval uning shoʻrlanish darajasi va kimyoviy tarkibi boʻyicha aniqlanadi.

Bu borada BMT ning maxsus maʼruzasida “Yer osti suvlari dunyo boʻylab olinadigan suvning yarmini yaʼni sugʻorish uchun ishlaltiriladigan suvning 25 foizini tashkil etadi. Iqlim oʻzgarishi natijasida keying 30 yil ichida yer usti suvlari cheklanganligi sababli kollektor-zovur suvlariga boʻlgan talab ortishi kutilmoqda”, deb taʼkidlanadi. Shu sababli kollektor-zovur suvlarining gidrologik jihatdan oʻrganish, qoʻshimcha suv manbai sifatida xalq xoʻjaligi va qishloq xoʻjaligining turli tarmoqlarida samarali foydalanishga oid ilmiy oʻrganishlarni taqozo etadi.

Arid iqlimli mintaqalarda sugʻoriladigan suvga boʻlgan ehtiyoj ortib bormoqda. Mamlakatimiz hududi 78,7 % i tekisliklardan iborat ekanligini va suvga boʻlgan ehtiyoj yuqori, bunda kollektor-zovurlar, tashlama koʻllarning ham ahamiyati kattadir. Ayniqsa, Buxoro viloyati hududi tekislikda joylashganligi sababli suvga boʻlgan ehtiyoj doimo sezilib turadi.

Viloyatda sugʻoriladigan yerlarning maydonlari yildan-yilga oʻzgarib bormoqda. Viloyat hududi 40.3 ming kv km ni tashkil etadi. Shundan sugʻoriladigan maydonlar 2023 yil holatida 276.3 ming gektarni tashkil qilgan. Hozirda viloyat tumanlari kesimida ham umumiy sugʻoriladigan maydonlar, yer osti suvlarining joylashuvi, yer osti suvlarining minerallik darajasi, sugʻoriladigan maydonlarning shoʻrlanish darajasi, sugʻoriladigan maydonlarning meliorativ holatlari ham oʻzgarib bormoqda.

Shuning uchun viloyatdan oqib o‘tuvchi Markaziy Buxoro, Shimoliy, Parallel zovuri va Qoraqir, Dengizko‘l, Zamonbobo kabi tashlama ko‘llarini gidrokimyosini, suv sarfini o‘rganish va ulardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish hozirgi kun davr talabi hisoblanadi. Sug‘oriladigan maydonlarning kollektor-drenaj suvlaridan foydalanilganda ularning sho‘rlanish darajasi, kimyoviy tarkibini yil davomida kamida 2 marta aniqlash zarur. Viloyatda sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanish darajasi 1-jadvalda berilgan

**Buxoro viloyati tumanlarining 2022-2023 yillarda sug‘oriladigan maydonlarining sho‘rlanish darajasi.**

**1-jadval**

Tumanlar nomi	Yillar	Umumiy sug‘oriladigan maydon ming.ga	Sho‘rlanmagan	Umumiy sho‘rlangan yerlar
			ming.ga	ming.ga
Buxoro	2022	30,1	4,0	26,1
	2023	30,1	4,1	26,0
Vobkent	2022	21,5	3,2	18,3
	2023	21,5	3,2	18,3
Jondor	2022	33,1	3,1	29,9
	2023	33,1	3,1	29,9
Kogon	2022	19,1	3,2	16,0
	2023	19,1	3,2	15,9
Olot	2022	21,5	4,1	17,5
	2023	21,5	4,1	17,4
Peshku	2022	22,8	4,0	18,8
	2023	22,8	4,1	18,7
Romitan	2022	27,2	4,1	23,1
	2023	27,2	4,1	23,1
Shofirkon	2022	28,4	3,6	24,8
	2023	28,4	3,6	24,8
Qorako'l	2022	26,5	3,7	22,8
	2023	26,5	3,7	22,8
Qorovulbozor	2022	19,3	4,4	14,9
	2023	19,3	4,4	14,9
G'ijduvon	2022	27,1	4,5	22,5
	2023	27,1	4,5	22,5

Tarkibida 0,5-0,7 g/l tuz bo‘lgan suv “yaxshi” sifatli, 0,8-1,5 g/l “qoniqarli”, 1,5-4 g/l “qoniqarsiz”, 5 g/l dan ko‘p bo‘lsa “yomon” sifatli hisoblanadi. Paxta ekiladigan tumanlarda ekinlarni sug‘orishda faqat “yaxshi” va “qoniqarli” sifatga

ega bo‘lgan suvdan foydalanish kerak. “Qoniqarsiz” sifatli suvni chuchuk suv bilan 1:2 nisbatda aralashtirib foydalanish mumkin. Yengil tuproqli yerlarda “qoniqarsiz” sifatli suvni chuchuk suv bilan aralashtirgan holda iyun-iyul oylaridan boshlab sug‘orishda ishlatish mumkin. Ayrim hollardagina “yomon” sifatli suvni chuchuk suv bilan aralashtirib “qoniqarsiz” darajaga keltirilgach, drenajlar yetarli miqdorda bo‘lgan yerlarda ekinlarga uchinchi suvdan boshlab berish mumkin. Esda saqlash kerakki, drenajlarda to‘plangan sho‘r suvlardan foydalanishda mavsumiy va har galgi sug‘orish normasin oshirib sho‘r yuvish ishlarini olib borgan holda o‘tkazish kerak. Hisobga olingan, sug‘orish normasini haddan tashqari ko‘paytirish sug‘orishni o‘tkazish davrini cho‘zish bilan birga, sug‘oriladigan maydonlarda oqovani ko‘paytiradi, tuproqning ildiz taralgan qatlamidagi oziq moddalarni va o‘g‘itlarni yuvib ketadi. Shu sababli sug‘orish normasini loy tuproqli, og‘ir sog‘tuproqli yerlarda 30 % dan va sog‘tuproqli-qumloq va qumli yerlarda 50 % dan oshirmaslik kerak. Kollektor-zovur suvlaridan foydalanilganda ekinlarni 1-2 marta ko‘proq sug‘orish kerak.

Viloyatdagi kollektor-zovur suvlaridan qo‘shimcha suv resurslari sifatida sug‘orma dehqonchilikda qayta foydalanish mumkin. Nisbatan kam minerallasgan Markaziy Buxoro, Shimoliy va Oyoqog‘itma kollektor-zovur suvlarida va tashlama ko‘llardan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalansa bo‘ladi. Kollektor-zovur suvlari bilan suv tanqis bo‘lgan yillarda qishloq xo‘jalik ekinlarini suvga bo‘lgan talabini qondirish, hosildorlikni saqlab qolish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va ekologik toza mahsulotni yetishtirish hamda sug‘oriladigan maydonlarning ishdan chiqishini oldini olish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Тошбеков Н.А. Суғориладиган майдонларда коллектор-зовур сувларидан фойдаланишнинг гидрологик таснифи // Science education. Scientific journal. 2022.

2. Хайитов Ё. К., Тошбеков Н.А. Сув ресурсларидан фойдаланишнинг баъзи бир масалалари (Бухоро вилояти мисолида) // “Ўзбекистонда илм-фан ва таълим” 3-сон конференция материаллари.- Тошкент, 2020.

3. Хайитов Ё.К. Коллекторно-дренажный сток Зерафшанского оазиса в начале XXI века // УзМУ хабарлари. Тошкент. 2016 №3/2.

4. Хайитов Ё.К. Результаты экспериментов очисткосточных вод ткацких фабрикс помощью пистия телорезовидная (*Pistia stratiotes* L) // Микроскопик сувўтлари ва юксак сув ўсимликларни кўпайтириш, уларни халқ хўжалигида қўллаш // Рес.конф. Бухоро, 2018.